Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Agrobiotexnologiyalar va oziq-ovqat xavfsizligi instituti 60810500 – O'simliklar himoyasi va karantini ta'lim yo'nalishi talabalari uchun Mevachilik va sabzavotchilik 1-2 qism fanidan tayyorlangan fan dasturi va sillabusiga

TAQRIZ

Fan dasturi va sillabusida talabalarning Mevachilik va sabzavotchilik fani bo'yicha bilim va malakalarini egallashi, ko'nikmalarini shakllantirishiga qaratilgan mavzular qamrab olingan. Fan dasturi va sillabusda Mevachilik va sabzavotchilik o'qitishdan maqsad meva va sabzavot ekinlarini ahamiyati, kimyoviy tarkibi, kelib chiqishi va tarqalish tarixi, hozirgi holati va rivojlanish istiqboli hamda tashqi muhit omillariga bo'lgan talabi to'g'risidagi bilimlarni oshirishdan iborat. Egallangan bilimlar bo'yicha, ko'nikma va malakalarni shakllantirish. Qishloq xo'jaligida yuqori va sifatli maxsulot olish uchun Mevachilik va sabzavotchilik bo'yisha yuqori malakali kadrlarni tayyorlash. Talabalarni, tannarxi arzon, eksportbob meva va sabzavotlarni yetishtirishni uchun agrotexnik tadbirlarni takomillashtirish, yangi navlarni o'rganish va qo'llash texnologiyalarni joriy etish dolzarb vazifa hisoblanadi.

60810500 – O'simliklar himoyasi va karantini ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabalari uchun Mevachilik va sabzavotchilik fani 5-6-semestrlarda rejalashtirilgan bo'lib, unda ma'ruza va amaliy mashg'ulotlari mavzulari fan dasturi asosida tuzilgan, mavzular ketma-ketligi bir-birini to'ldirib, fanning barcha bo'limlarini qamrab olgan. Mustaqil ta'lim mavzulariga alohida e'tibor berilgan bo'lib ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar mavzularida keltirilgan mavzular mustaqil ta'lim mavzulariga kiritilmaganligi talabalarning mustaqil ta'limlarda o'zlari mustaqil ravishda ishlashga qaratilgan.

Bundan tashqari fan dasturi va sillabusida keltirib o'tilgan adabiyotlarning ro'yxati o'zlarining tarkibi jihatdan sillabusda keltirilgan mavzularni ma'ruza va amaliy mashg'ulot hamda mustaqil ta'lim mavzularini o'zlashtirishda amaliy yordam beradi.

Umuman olganda fan dasturi va sillabusi 60810500 – O'simliklar himoyasi va karantini ta'lim yo'nalishi uchun Mevachilik va sabzavotchilik fanidan tuzilgan bo'lib, oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan qo'yilgan barcha talablarga to'liq javob beradi va uni foydalanishlari uchun tavsiya etaman.

Samarqand Agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti meva-sabzavotchilik va uzumchilik kafedrasi mudiri, professori, q.x.f. doktori. **S.T.Sanaev**

DEVONXONA VA ARXIV

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Agrobiotexnologiyalar va oziq- ovqat xavfsizligi instituti

Ro'yxatga olindi: № БД-60810500 2024 yil "09 30		**"TASDIQLAYMAN"** SamDU rektori: _____ R.I.Xalmuradov 2024 yil "__" _____

MEVACHILIK VA SABZAVOTCHILIK 1-2 QISM

FAN DASTURI

Bilim sohasi:	800000 – Qishloq, o'rmon baliq xo'jaligi va veterenariya
Ta'lim sohasi:	810000 – Qishloq xo'jaligi
Ta'lim yo'nalishi:	60810500 – O'simliklar himoyasi va karantini

Fan/modul kodi	O‘quv yili	Semestr	ECTS – Kreditlar
MEVSA1508 MEVSA1608	2026-2027	5-6	8
Fan/modul turi	**Ta’lim tili**		**Haftadagi dars soatlari**
Majburiy	O‘zbek		4

1.	Fan nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Umumiy (soat)
	Mevachilik va sabzavotchilik 1-2 qism	102	138	240

Fanning maqsadi (FM)	
FM1	**I. FANNING MAZMUNI** **Fanni o’qilishidan maqsad** – meva va sabzavot ekinlarini ahamiyati, kimyoviy tarkibi, kelib chiqishi va tarqalish tarixi, hozirgi holati va rivojlanish istiqboli hamda tashqi muhit omillariga bo’lgan talabi to’g’risidagi va mevachilik va sabzavotchilikka yangi kirib kelgan intensiv navlarini ko’paytirishga o’rgatish. **Fanning vazifalari:** talabani ushbu fan bo’yicha olgan nazariy va amaliy bilimlarini bog’ sharoitida meva-sabzavotlar yetishtirishning ilg’or texnologiyalari to’g’risida, meva-sabzavotlarni ishlatilishi, tashqi muhit omillariga ko’ra guruhlarga ajratish, ko’paytirish usullarini o’rganish, fan bo’yicha olgan nazariy va amaliy bilimlarini kurs ishi va bitiruv ishlarini bajarish bilan real sharoitda qo’llash bo’yicha ko’nikmalar hosil qilishdir.

Fan mazmuni	
II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari) **II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**	
Mashg‘ulotlar shakli: ma’ruza (M)	
5-semestr uchun ajratilgan ma’ruza	
M1	**Kirish. Mevachilikni xalq xo’jaligidagi ahamiyati, hozirgi ahvoli va rivojlanish istiqbollari** Kirish. Mevachilik fan va tarmoq sifatida. O’zbekiston Respublikasida meva va rezavor meva o’simliklarini yetishtirishni xalq xo’jaligidagi ahamiyati. Meva bog’larini davlatlararo va qit’alararo joylashganligi. Mevachilikning dunyo bo’yicha ahvoli. Mevachilikning O’zbekistondagi qisqacha ahvoli va rivojlanish istiqbollari.
M2	**Meva va rezavor meva o’simliklarining kelib chiqishi, botanik tarkibi va biologik xususiyatlari** Meva va rezavor meva o’simliklarining kelib chiqishi.Meva va rezavor meva o’simliklarining morfo-biologik guruxlari.Urug’li, danakli, rezavor, yong’oqmevalar va subtropik mevalarning turlari va botanik nomlari.Meva va rezavor meva o’simliklarining yer ustki qismi, xosilga kirishi va yashashiga ko’ra guruxlash.
M3	**Meva va rezavor meva o’simliklarining tashqi muhit omillariga talabi** Meva o’simliklarining tashqi muhit omillariga munosabati. Talabchanligi, chidamliligi, sovuqqa bordoshligi, tolerantligi. Muhit sharoitini harorati, yorug’ligi, havo va tuproq namligini, biologik omillariga munosabati
M4	**Meva va rezavor meva o’simliklarining tashqi muhit omillariga talabi** Meva o’simliklarining tashqi muhit omillariga munosabati. Talabchanligi, chidamliligi, sovuqqa bordoshligi, tolerantligi. Muhit sharoitini harorati, yorug’ligi, havo va tuproq namligini, biologik omillariga munosabati
M5	**Meva bog’i barpo qilish va meva ko’chatlari o’tkazish** Meva bog’i borpo qilish uchun joy tanlash va bog’ maydonini tashkil kilish. Meva turlari va navlarini tanlash xamda tur va naviga qarab daraxtlarni joylashtirish usulini joriy kilish. Bog’ meva daraxtlarini joylashtirish usullari va qator oralaridan foydalanish. Bog’ uchastkasini rejalash. Bog’larni sug’orish, o’g’itlash va mulchalashning ahamiyati.
M6	**Bog’ qator oralariga ishlov berish tizimi** Bog’larda yerga ishlov berish sistemasi. Bog’ qator oralaridan foydalanish usullari. Qoplama ekinlar (sideratlar) xaqida ma’lumot. Begona o’tlarga qarshi kurashishda gerbesidlardan foydalanish. Bog’larni sug’orish va o’g’itlash usullari va me’yorlari.
M7	**Mevali daraxtlarga shakl berish va kesish** Meva daraxtlariga shakl berish va butashning axamiyatli jihatlarini, hosildorlikni oshirish omillarini o’rganish. Meva daraxtlariga shakl berish usullari. Meva o’simliklarini butash davrlari va texnikasi. Palmetta daraxtlariga shakl berish.
M8	**Rezavor mevalarning agrotexnik xususiyatlari** Rezavor meva o’simliklarining xalq xo’jaligidagi ahamiyati. Qulupnay, qulupnayzorni parvarish qilish. Malina, malinazorlar barpo qilish va Smarodina (Qorag’at)ni xalq xo’jaligidagi ahamiyati va istiqbollari. Rezavor mevali bog’larni tog’li zonalarda barpo qilish, bog’larni loyihalash va loyiha topshirig’ini tuzish. Bog’ kvartallarining hajmi, shakli va joylashtirish relyefi, tashkiliy – iqtisodiy omillari, sug’orish tarmoqlarini joylashtirish, sug’orish texnikasi va himoyalash usullari. Terassalarda rezavor mevali ekinlarni joylashtirish.
M9	**Tog’li yerlarda mevachilik** Tog’li yerlarda mevachilik. Tog’li va tog’ oldi mintaqalarida iqlim, tuproq va relyef sharoitlari. Tog’ yerlarda meva bog’i barpo qilish uchun tog’ yerlarni qiyaligi hisobga olinadi va qiyalik 10-12°S oshsa albatta bog’ barpo qilish zinapoyalar orqali amalga oshiriladi. Tog’li mintaqalarda meva ekinlarini ko’paytirish va bog’larini barpo qilish. Tog’li mintaqalarda meva ekinlarini qishki va erta bahorgi sovuqlardan asrash. Tog’ va tog’ oldi mintaqalarida meva ekinlari hosilini parvarish qilish.

M10	**Tok ko'chatini yetishirish va tokzor barpo qilish** Tok kuchatlari ko'paytirish texnologiyasi va tokzorlar barpo qilish, tok tuplariga shakl berish va kesish. Tokzor tuprog'ini saqlash, ishlov berish, o'g'itlash, sug'orish va hosilini terish. Tok yashil qismlari bilan olib boriladigan ishlar.
M11	**Sabzavotchilik fanining ahamiyati va istiqbollari** Sabzavotchilik fanining maqsadi va vazifalari. Sabzavotlarning inson salomatligini muxofazalashdagi ahamiyati. Respublikamizda sabzavotchilikni rivojlantirish borasida olib borilayotgan ishlar, qabul qilinayotgan qarorlar va qonunlar. Sabzavotlarning yangi turlarini, istiqbolli nav va duragaylarini ko'paytirish va yetishtirilayotgan mahsulotlar sifatini oshirish, eksportbop mahsulotlar yetishtirish.
M12	**Sabzavot ekinlarining botanik tasnifi, morfologik va biologik xususiyatlari** Sabzavotlarni botanik belgilariga ko'ra guruhlanishi, hayotining davomiyligi, kelib chiqish makonlari, tarqalishi, oziq-ovqatga ishlatilishi bo'yicha guruhlanishi. Sabzavotlarning iste'mol qilinadigan qismlarining kimyoviy tarkibi, oziqalik ahamiyati. Sabzavot o'simliklarining botanik oilalari ta'rifi. Sabzavot o'simliklarining tashqi muhit omillariga munosabati bo'yicha guruhlanishi, o'sish va rivojlanish bosqichlarini o'tishi davrida tashqi muhit ta'siri. Tuproq, havo harorati va namligining o'simliklar o'sishi va rivojlanishiga ta'siri.
	6-semestr uchun ajratilgan ma'ruza
M13	**Himoyalangan yer inshootlari turlari, tuzilishi va vazifalari** Mamlakatimizdagi himoyalangan joy inshootlarining qisqacha tarixi, hozirgi ahvoli va rivojlanish istiqbollari. Himoyalangan joy inshootlari turlari, ularning guruhlanishi va farqli xususiyatlari. Isitilgan yer turlari va tuzilishi. Issiqxonalar vazifasi, ulardan mavsumiy foydalanish. Issiqxonalar maydonidan samarali foydalanishda rejalashtirish, ildizidan oziqlantirish, isitish, shamollatish usullari. Gidropon issiqxonalar, ularning tuzilishi. Plyonkali issiqxonalar turlari, ularning afzalligi, kamchiliklari va ulardan samarali foydalanish.
M14	**Himoyalangan joylarda sabzavot ko'chatlarini yetishtirish usullari** Ko'chat yetishtirishning ahamiyati, uning afzalligi va kamchiliklari. Ildamlik va uni yetishtirish sharoitlariga bog'liqligi. Ko'chat yetishtirishda foydalaniladigan tuproq aralashmasi va uni tayyorlash. Urug'larni ekishga tayyorlash usullari. Ko'chat yetishtirish uslublari va usullari, ularning afzallik va kamchiliklari. Ko'chatlarni parvarishlash, mikroiqlim sharoitlarini boshqarish. Ko'chatlarning sifat ko'rsatkichlari. O'zbekistonda ochiq yerga ko'chat bilan ekiladigan sabzavotlar, ularni ekish muddatlari, yetishtirish usullari va davomiyligi. Ko'chatlarni pikirovkali va pikirovkasiz usulda yetishtirish. Pikirovka, uni o'tkazish texnologiyasi. Ko'chatlarni chiniqtirish, ularni saralab olish va sifatiga qo'yiladigan talablar.
M15	**Himoyalangan joylarda sabzavot ekinlarini yetishtirish texnologiyasi** Himoyalangan joylarda sabzavotlarni yetishtirishda asosiy hayotiy omillarni ta'minlash, tuproq aralashmasini tayyorlash, o'g'itlarni qo'llash va sabzavotlarni tuproqsiz sharoitda yetishtirishni zamonaviy usullari, Himoyalangan joy maydonlaridan unumli foydalanish, ko'kat hamda turli sabzavot mahsulotlarni yetishtirish texnologiyalari. Himoyalangan joylarda sabzavot yetishtirishda harorat, namlik va yorug'likka talabi va ularni guruhlash. Haroratni asosiy me'yorlari: maqbul harorat, agronomik va biologik maksimum va minimum harorat chegaralari, haroratni ta'minlash va sozlash usullari. Himoyalangan joylarda pomidor va bodring yetishtirish texnologiyasi.
M16	**Sabzavot ekinlarini ekish muddatlari, usullari va almashlab ekish** Sabzavotlarni almashlab ekishning ahamiyati, xususiyati, almashlab ekish sxemasi va ekinlarni almashlab ekishdagi o'rni. Ertangi, o'rtangi, kechki, yoz-kuz va kech kuz- erta qish (to'qsonbosti) muddatlarda ekiladigan sabzavotlar turlari hamda turli ekish usullari. Urug'larni hamda vegetativ usulda ko'payadigan sabzavotlar ekish ashyolarini ekishga tayyorlash. Sabzavotlarni turli muddatlarda ekish uchun yerni ekishga tayyorlashdan maqsad va talablar. O'zbekiston iqlim sharoitida sabzavotlarni ekish muddatlari va usullari, ularni turli muddatlarda ekish sabablari. Sabzavotlar uchun ekish sxemalari va xususiyatlari oziqlanish maydoni, ko'chat qalinligi va qulay ekish sxemalari.
M17	**Kartoshkaning ahamiyati, biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi** Kartoshka vatani, tarqalish tarixi, va ahamiyati. O'suv davrini turli bosqichlarida tashqi muhit omillariga munosabati. Rayonlashtirilgan navlari tasnifi. Kartoshkani kasallik va zararkunandalar. Ertagi va kechki kartoshka yetishtirish texnalogiyasi. Ertagi kartoshka urug'ini ekishga tayyorlash usullari va uni ahamiyati. Ertagi va kechki kartoshkani oziqlantirish va sug'orish. Kartoshka urug'lik tugunaklarini ekish muddatlari va chuqurligi hamda sxemalari. Urug'lik kartoshka yetishtirishda agrobiologiyasini ahamiyati. Ikki hosilli kartoshka yetishtirish.
M18	**Tomatdosh sabzavotlar biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi** Tomatdoshlarni ahamiyati, tarqalishi, tashqi muhit omillariga munosabati va ko'paytirish usullari. Tomatdoshlar navlari tasnifi va xususiyatlari. Ertagi va kechki pomidorga yerni tayyorlash. Navi va ekish muddatlariga ko'ra oziqlanish maydonini to'g'ri tanlash. Ekish muddatlari, sxemasi, o'suv davrida parvarish qilish, kasallik va zararkurandalarga qarshi kurash, jadal texnologiya xususiyatlari, hosilni qo'lda va mexanizmlar yordamida terish. Tomatdoshlarni almashlab ekishdagi o'rni, o'tmishdosh ekinlarga munosabati. Tomatdoshlarni ko'chatsiz urug'idan yetishtirish, urug'ni ekishga tayyorlash, ekish muddati sxemasi va chuqurligi. Takroriy pomidor yetishtirish texnologiyasi.
M19	**Karam o'simliklari biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi** Karam turlari va navlarini farqlari, kimyoviy tarkibi, issiqlik, namlik, tuproq va havo oziqasiga munosabati hamda ularni sozlash usullari. Karamni almashlab ekishdagi o'rni, o'tmishdosh ekinlarga munosabati, ekish muddati, tuproq oziqasiga talabchanligi, ekish sxemalari va qalinligi. Kasallik va zararkunandalariga qarshi kurashish choralari. Oqbosh va gulkaramni ertagi, kechki va o'rtagi muddatlarda yetishtirish hamda urug'idan yetishtirish texnologiyasining o'ziga xos xususiyatlari. Oq bosh karam navlari tasnifi.
M20	**Bodring va sabzavot qovoqchalar biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi**

	Bodring va sabzavot qovoqchalari biologik xususiyatlari, rayonlashtirilgan navlari tasnifi, ekish muddatlari va sxemalari. Bodringni jadal texnologiya asosida yetishtirish va hosilini yig'ishtirishning o'ziga xos xususiyatlari. Bodring va sabzavotlar qovoqchalarini o'tmishdosh ekinlarga munosabati, yerni ekishga tayyorlash, ekish muddatlari, urug'ni ekishga tayyorlash, ekish, qatorlar orasiga ishlov berish, kasallik va zararkunandalariga qarshi kurash, oziqlantirish va sug'orish tartiboti.
M21	**Ildizmevali sabzavotlar biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi** Ildizmevali sabzavotlarni tashqi muxit omillariga munosabati. Biologik xususiyatlari. Sabzi, turp, osh lavlagi, va boshqalarning kelib chiqqan makoni, harorat, namlik va tuproq oziqasiga munosabati hamda rayonlashtirilgan navlari tasnifi. Yerni ekishga tayyorlash, ekish muddatlari, parvarish qilish oziqlantirish kasallik va zarakunandalariga qarshi kurashish choralari, urug'chiligi va hosilni yig'ishtirish.
M22	**Rezavor mevali bog`larni loyihalash.** Rezavor mevali bog'larni tog'li zonalarda barpo qilish, bog'larni loyihalash va loyiha topshirig'ini tuzish. Bog' kvartallarining hajmi, shakli va joylashtirish relyefi, tashkiliy – iqtisodiy omillari, sug'orish tarmoqlarini joylashtirish, sug'orish texnikasi va himoyalash usullari. Terassalarda rezavor mevali ekinlarni joylashtirish.
M23	**Tog'li mintaqalarda meva ekinlarini barpo qilish.** Tog'li mintaqalarda meva ekinlarini ko'paytirish va bog'larini barpo qilish. Tog'li mintaqalarda meva ekinlarini qishki va erta bahorgi sovuqlardan asrash. Tog' va tog' oldi mintaqalarida meva ekinlari hosilini parvarish qilish.
M24	**Issiqxonalar maydonidan samarali foydalanishni rejalashtirish** Issiqxonalarda yetishtiriladigan sabzavot ekinlari ildizidan oziqlantirish, isitish, shamollatish usullari. Gidropon issiqxonalar, ularning tuzilishi. Plyonkali issiqxonalar turlari, ularning afzalligi, kamchiliklari va ulardan samarali foydalanish.
III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar: Amaliy (A) Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi.	
5-semestr uchun ajratilgan amaliy mashg'ulotlar	
A1	Meva va rezavor meva o'simliklarini biologik – xo'jalik guruxlarga ajratish
A2	Meva va rezavor meva o'simliklarining morfologik tuzilishi
A3	Meva o'simliklarini o'suvchi va hosil beruvchi navdalarining xarakteristikasi
A4	Bog' asboblari va ulardan foydalanish usullari
A5	Meva o'simliklarini payvand qilish usullari
A6	Meva ko'chatzori tashkil etishda xisob kitoblar
A7	Mevali bog' barpo etish loyixasini tuzish bo'yicha xisob kitoblar
A8	Meva o'simliklarini parvarish qilishda sug'orish me'yorlarini xisoblash
A9	Meva o'simliklarini parvarish qilishda organik va mineral o'g'itlardan foydalanish bo'yicha xisob kitoblar
A10	Meva xosilini yig'ib terib olish rejasini tuzish
A11	Rayonlashtirilgan meva va rezavor meva o'simliklarining navlarini tavsifi
A12	Tokzorlar barpo qilish loyixasini tuzishda xisob kitoblar
A13	Eng muxum sabzavot ekinlarining tur tarkibi bilan tanishish.
A14	Sabzavot ekinlarini urug'lari bilan tanishish.
A15	Himoyalangan yer inshoatlari turlari va ularni tuzilishi.
6-semestr uchun ajratilgan amaliy mashg'ulotlar	
A16	Sabzavot ekinlarini dalada ekish sxemalari va gektardagi o'simliklar sonini aniqlash.
A17	Himoyalangan joylarda ko'chat yetishtirishga oid xisoblashlar.
A18	Kartoshka ekinini navlari morfologik tuzilishini o'rganish.
A19	Tomatdosh sabzavotlar navlari tuzilishi bilan tanishish.
A20	Piyoz navlari bilan tanishish
A21	Keng tarqalgan karam navlari bilan tanishish.
A22	Keng tarqalgan bodring navlari bilan tanishish.
A23	Ildizmevali sabzavotlarning navlari bilan tanishish
A24	Kam tarqalgan sabzavot turlari bilan tanishish
A25	Karam yetishtirish texnologiyasi
A26	Himoyalangan joylarda pomidor yetishtirish texnologiyasi.

IV. **Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular

"Mevachilik va sabzavotchilik" fani bo'yicha mustaqil ta'lim va ishlarning kalendar tematik rejasi

№	Mustaqil ta'lim mavzulari
	5-semestr uchun ajratilgan mustaqil ta'lim mavzulari
1.	Qarigan bog'larni yoshartirish texnologiyasi.
2.	Bog'larda oldidan hosilni aniqlash usullari.
3.	Bog'larda sanitar kesish usullari va uni o'tkazish texnologiyasi.
4.	Danakli mevalarni yetishtirish va ularga shakl berish texnologiyasi.
5.	Meva ko'chatlariga shakl berish, ularni parvarish qilish.
6.	O'zbekistonda kam ekiladigan mevali ekinlarni ta'riflash.
7.	Olmani intensiv navlarini parvarish qilish texnologiyasi.
8.	Palmetta bog'larini yetishtirish texnologiyasi.
9.	O'zbekistonda yetishtiriladigan o'rikni navlariga tasnif bering.
10.	Anjir ko'chatini yetishtirish texnologiyasi.
	6-semestr uchun ajratilgan mustaqil ta'lim mavzulari
11.	Kam tarqalgan sabzavot turlari, ularni yetishtirish texnologiyasi.
12.	Ko'katli sabzavotlarning oziqaboplik ahamiyati, navlari va yetishtirish texnologiyasi.
13.	Kartoshkaning ahamiyati, biologiyasi va navlari.
14.	Kam tarqalgan karam turlari, ularning ahamiyati va yetishtrish texnologiyasi.
15.	Himoyalangan inshootlarni tuzilishi.
16.	O'zbekistonda rayonlashtirilgan tamatdosh oilalarini, yetishtirish texnologiyasi.
17.	O'zbekistonda rayonlashtirilgan gulxayridosh oilalarini, yetishtirish texnologiyasi.
18.	O'zbekistonda rayonlashtirilgan sholg'om navlari, yetishtirish texnologiyasi.
19.	O'zbekistonda rayonlashtirilgan bargli salat navlari, yetitirish texnologiyasi.
20.	Sabzavot soyasining oziqaboplik ahamiyati, navlari, yetishtirish texnologiyasi.

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan mavzularni normativ-huquqiy hujjatlar va o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish, referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish, ilmiy maqola, tezislar tayyorlash, amaliyotdagi mavjud muammolarni yechimini topish, fanning dolzarb muammolarini qamrab oluvchi loyihalar tayyorlash, o'rganilayotgan mavzu bo'yicha asosiy ilmiy adabiyotlarga annotasiya yozish kabi ko'rinishdagi ishlarni bajarish tavsiya etiladi.

3.	**V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: - meva va sabzavot o'simliklarini turlari, botanik va morfologik tuzilishi, ta'rifi, meva ekinlarini biologik xususiyatlari va o'simliklarning hayotiy omillarga talablari, o'simliklarga xos hayotiy omillarni muvofiqlashtirish yo'llari va tadbirlari; meva va sabzavot ekinlarini ko'paytirish usullari va ularni qo'llash tartib texnologiyasi haqida **bilimlariga ega bo'ladi.** • - o'stiriladigan meva va sabzavot ekinlari turlari va urug'larini aniqlash, meva ekinlarining agrobiologik xususiyatlariga oid tushunchalar, hamda hosildorligi aniqlash, meva va sabzavot ko'chatlarini ko'paytirishning biologik asoslarini, meva ekinlari turi va naviga muvofiq mahsulot yetishtirish texnologiyalarini tashkil qilishn **ko'nikmalariga ega bo'lishadi.**
4.	**VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:** • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • *munozara,* • *o'z-o'zini nazorat.* • "Aqliy hujum", • "Muammo"; • Krossvord • Annogrammalar • Ko'chma dars mashg'ulotlari
5.	**VII. Kreditni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy nazorat shakllari, hamda mustaqil ta'limda berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish

6. ASOSIY ADABIYOTLAR:

1. D.S.Normurodov,I.T.Normuratov,S.T.Sanayev,E.I.Hamdamova "Uzumchilik" Darslik SamDU nashri, 2021.
2. D.S.Normurodov,B.X.Xalmirzaev,K.SH.Bozorov, I.T.Normuratov, M.Z.Xolmuradov. "Lalmikor Mevachilik". O'quv qo'llanma. SamDU nashri, 2021.
3. Ostonaqulov T.E, S.Ya.Islamov,X.X.Xonqulov,S.T.Sanaev,D.K.Xolmirzaev. "Mevachilik va sabzavotchilik (Mevachilik)" Darslik, 2019
4. T.E.Ostonaqulov, B.X.Xalmirzayev, "Yong'oq navlari va yetishtirish texnologiyasi", O'quv qo'llanma, 2016.
5. T.E.Ostonaqulov, B.X.Xalmirzayev, S.X.Narziyev "Meva ko'chatlarni yetishtirish intensiv bog' va tokzorlar agrotexnikasi bo'yicha tavsiyalar" O'quv qo'llanma, 2012.
6. D.Y.Yormatova,M.Y.Ibrohimov,D.S.Yormatova. "Meva-Sabzavotchilik" Darslik 2008

QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekistan davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, "O'zbekistan" NMIU, 2017. - 56 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq; farovonligining garovi. "O'zbekistan" NMIU, 2017.-47 6.
3. Mirziyoyev Sh.M. Tankidiy taxlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir raxbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. "O'zbekistan" NMIU, 2017. - 103 b.
4. Yunusov R, Yuldoshov L T, Ganiyeva F A, Meva ekinlari biologiyasi o'quv qo'llanma 2023
5. D.S.Normurodov., Sh.Abrorov., Sh.N.Rajametov., B.X.Xalmirzayev., S.T.Sanayev., I.Normuratov., B.S.Mamatov. Intensiv mevachilik. Darslik. - Samarqand, 2021; 290 b.
6. D.S.Normurodov., I.Normuratov., S.T.Sanayev I.Namozov, A.Raximov, L.B.Xalmirzayeva. Lalmikor mevachilik. Darslik – Samarqand, 2022.- b.

AXBOROT MANBALARI:

www.gov.uz – O'zbekistan Respublikasi hukumat portali

	www.Lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun Hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi www.soilfertilite. www.Worldfertilizer www.google.ruc samdu.uz www.z-lib.org www.cyberlininka.ru www.elibrary.ru toshdau.uz
7.	Fan dasturi Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Kengashining 2024 yil “24” avgustdagidagi 1 -son bayonnomasi bilan ma’qullangan.
8.	**Fan/modul uchun mas’ullar:** **M.A.Xayitov**- Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Meva-sabzavotchilik va uzumchilik kafedra mudiri, dotsent. **Fan o’qituvchisi** –Aliboyev Sherzod Abduraxmanovich, assistent.
9.	**Taqrizchilar:** D.S.Normuradov - Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti meva-sabzavotchilik va uzumchilik kafedrasi professori, q.x.f. doktori. **(93)356,02,72** S.T.Sanaev – Samarqand Agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti meva-sabzavotchilik va uzumchilik kafedrasi mudiri, professori, q.x.f. doktori. **(93)297,00,22**

Universitetning 2024-yil 16- avgustdagi 301-ij buyrug‘i asosida
Fan dasturlari va mustaqil ta’lim topshiriqlarini ishlab chiqishga ma’sul ishchi guruhi:

Rais –Sh.T.Xoliqulov

Kafedra mudiri: **M.A.Xayitov**

Institut o‘quv uslubiy kengash raisi: **Sh.A.Mamasov**

Institut direktori: **T.F.Rajabov**

Sh. Rashidov nomidagi
SamDU O‘quv ishlari bo‘yicha
1-prorektor: **A. S. Soleyev**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Agrobiotexnologiyalar va oziq-ovqat xavfsizligi instituti 60810500 – O‘simliklar himoyasi va karantini ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun Mevachilik va sabzavotchilik 1-2 qism fanidan tayyorlangan fan dasturi va sillabusiga

TAQRIZ

Fan dasturi va sillabusida talabalarning Mevachilik va sabzavotchilik fani bo’yicha bilim va malakalarini egallashi, ko’nikmalarini shakllantirishiga qaratilgan mavzular qamrab olingan. Fan dasturi va sillabusda Mevachilik va sabzavotchilik o‘qitishdan maqsad meva va sabzavot ekinlarini ahamiyati, kimyoviy tarkibi, kelib chiqishi va tarqalish tarixi, hozirgi holati va rivojlanish istiqbollari hamda tashqi muhit omillariga bo’lgan talabi to’g’risida hamda shu bilan birga yangi kirib kelgan intensiv meva va sabzavot navlarini ko’paytirishga qaratish. Egallangan bilimlar bo’yicha, ko’nikma va malakalarni shakllantirish. Qishloq xo’jaligida yuqori va sifatli maxsulot olish uchun Mevachilik va sabzavotchilik bo’yisha yuqori malakali kadrlarni tayyorlash. Talabalarni, tannarxi arzon, eksportbob meva va sabzavotlarni yetishtirish uchun agrotexnik tadbirlarni takomillashtirish, yangi navlarni o’rganish va qo’llash texnologiyalarni joriy etish dolzarb vazifa hisoblanadi.

60810500 – O‘simliklar himoyasi va karantini ta’lim yo‘nalishi 3-kurs talabalari uchun Mevachilik va sabzavotchilik fani 5-6-semestrlarda rejalashtirilgan bo‘lib, unda ma’ruza va amaliy mashg’ulotlari mavzulari fan dasturi asosida tuzilgan, mavzular ketma-ketligi bir-birini to’ldirib, fanning barcha bo’limlarini qamrab olgan. Mustaqil ta’lim mavzulariga alohida e’tibor berilgan bo’lib ma’ruza va amaliy mashg’ulotlar mavzularida keltirilgan mavzular mustaqil ta’lim mavzulariga kiritilmaganligi talabalarning mustaqil ta’limlarda o’zlari mustaqil ravishda ishlashga qaratilgan.

Bundan tashqari fan dasturi va sillabusida keltirib o’tilgan adabiyotlarning ro’yxati o’zlarining tarkibi jihatdan sillabusda keltirilgan mavzularni ma’ruza va amaliy mashg’ulot hamda mustaqil ta’lim mavzularini o’zlashtirishda amaliy yordam beradi.

Umuman olganda fan dasturi va sillabusi 60810500 – O‘simliklar himoyasi va karantini ta’lim yo‘nalishi uchun Mevachilik va sabzavotchilik fanidan tuzilgan bo’lib, oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan qo‘yilgan barcha talablarga to‘liq javob beradi va uni foydalanishlari uchun tavsiya etaman.

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, meva-uzumchilik va sabzavotchilik kafedrasi professori, q/x.f.doktori **D.S.Normurodov**